

FA Fizika-texnika instituti hamda «MISiS»ning Olmaliq filiali o'rtasida memorandum imzolandi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fizika-Quyosh" ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi Fizika-texnika instituti hamda Rossiyaning Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti "MISiS"ning Olmaliq shahridagi filiali o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi.



Memorandunga asosan tomonlar Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida energiya samaradorlikni oshirish, chiqindi gaz issiqligidan samarali foydalanish, yarimo'tkazgichli datchiklar ishlab chiqish, hamkorlikda kadrlar tayyorlash hamda bir qator boshqa yo'nalishlarda keng qamrovli loyihalar ustida hamkorlikda ish olib borishadi.

